

SARVONTEPA ARXEOLOGIYA YODGORLIGI.

Shaxlo Xusanova

Qo'qon universiteti Andijon filiali t.f.f.d. (PhD)

Tursunova Manzura Rustamjon qizi

Tarix yonalishi 1-kurs talabasi

E-mail:manzuramuslimall@gmail.com

Tel: +998 91 489 57 67

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyatida joylashgan Sarvontepa yodgorligining tarixiy ahamiyati, o'rganilish bosqichlari va ilmiy natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yodgorlikning sovetlar davrida olib borilgan dastlabki arxeologik tekshiruvlari hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan qazishma ishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Sarvontepada topilgan sopol idishlar, xom g'ishtli inshoot qoldirlari va madaniy qatlamlar orqali bu hududning miloddan avvalgi VI–IV asrlardayoq shahar tipidagi manzilgoh sifatida shakllanganligi isbotlangan.

Kalit so'zi: Sarvontepa, qatlamlar, yodgorliklar, shurf, qazishmalar, arxeologik tadqiqotlar

Аннотация: В данной научной работе анализируются историческое значение, этапы изучения и археологические результаты исследования археологического памятника Сарвонтепа, расположенного в Андижанской области. В исследовании приведены сведения о первых археологических раскопках, проведённых в советский период, а также о работах, выполненных в годы независимости Узбекистана. Найденные на Сарвонтепе глиняные сосуды, остатки строений из сырцового кирпича и культурные слои свидетельствуют о том, что данная территория уже в VI–IV веках до н.э. представляла собой поселение городского типа. Полученные результаты показывают, что Сарвонтепа занимает важное место в истории древнего градостроительства Узбекистана.

Ключевые слова: Сарвонтепа, слои, памятники, шурф, раскопки, археологические исследования.

Abstrakt: This research analyzes the historical significance, stages of study, and archaeological findings of the Sarvontepa archaeological site, located in the Andijan region. The study provides detailed information about the initial excavations conducted during the Soviet period as well as the archaeological works carried out during the years of Uzbekistan's independence. Findings such as ceramic vessels, remains of mud-brick structures, and cultural layers prove that this area had developed as an urban-type settlement as early as the 6th–4th centuries BCE. These results demonstrate the important role of Sarvontepa in the history of ancient urban development in Uzbekistan.

Keywords: Sarvontepa, layers, monuments, excavation pit (shurf), excavations, archaeological research.



Kirish: Sarvontepa 2001-yil tadqiqodlar Sarvontepa yodgorligi Andijon Eski shahar shimoliy-gʻarbiy qismida, Tutzor va Sarvontepa koʻchalarining kesishmasi yonida joylashgan Sarvontepa yuqorida nomlari keltirilgan koʻchalarning qurilishi davrida qirqilgan va xususiy uylarning qurilishi vaqtida qattiq shikastlangan. Uning katta qismi yakka tartibdagi imoratlar ostida qolib ketgan. Yodgorlikdan saqlanib qolgan qoldiqlarining asosi trapesiyasimon koʻrinishdagi tepalik boʻlib, uning yuqori qismi esa toʻgʻriburchak shakliga ega. Yodgorlikning yuqori qatlamlari 1976-yilda B.Abdulgaziyeva tomonidan tadqiq etilgan. Shurfning turli qalinlik va tarkibiga ega boʻlgan 21 ta qatlam aniqlandi. Bu qatlamlarda sopol buyumlar yotardi. Mazkur kompleksdagi topilmalar yopma qoldi tayyorlangan sopol buyumlardan iborat boʻlib, aksariyat holatlarda bu kulolchilik mahsulotlariga ikki taraflama qizil qizil- jigarrang, sargʻish angob berilgan. Qazishmasi oʻrtacha zichlikda sopol sindirilganda ikki xil rangda, bir maqomda pishirilgan. Bu yerda topilgan kulolchilik buyumlari Eylaton kompleksidagilarga oʻxshashlik kasb etadi (eramizdan avvalgi VI- III asrlar) Yodgorlikning quyi davriy sanasi eramizdan avvalgi VI-V asrlar bilan belgilangan. Madaniy qatlamlar va topilmalar Sarvontepada topilgan madaniy qatlamlar son jihatidan boydir. Ularning baʼzilari bronza davriga oid boʻlsa, keyingi qatlamlar ilk temir davriga mansubdir. Sopol buyumlari turli shaklda ishlanganligi ularning ustiga geometrik naqshlar solingani oʻsha davr xalqining badiiy didi yuksak boʻlganini bildiradi. Topilgan don saqlash xumdonlari va sugʻorish izlari esa bu davrda dehqonchilik rivojlanganidan dalolat beradi.

Sarvontepa rasmiy roʻyxatga birinchi marta 1950-yillarda kiritilgan 1970- yillarda yodgorlikning yuqori qatlamlari tekshirilgan bu ishlarni B.Abdugaziyeva bosqichni bajarib asosan erta oʻrta (X-XII) materiallari aniqlangan.

Sovet davri Fargʻona vodiysi arxeologiyasi (Bernshtam, Zednerovskiy Latinin va boshqalar) davrida Sarvontepa ham maʼlum tadqiqod obʼekti boʻlgan; bu tadqiqotlar mintaqaning bronza ilk temir davri tarixini aniqlashga xizmat qilgan. 2001- yilgi teshiruvda pastki qatlamardan Eylaton (ilk temir davri) madaniyati materiallarini koʻrsatadi. 1970-yillar - mayda qazishmalar 1976-yilda Sarvontepaning yuqori (eng yangi) qatlamlari - asosan oʻrta asrlar materiallari - qisqacha oʻrganiladi. Bu qatlamlar shaharning keyingi bosqichlarini aks ettiradi va shaharsozlikning oʻrta asr taraqqiyoti haqida maʼlumot beradi.

Sarvontepa shaharning ichida joylashgani bois qalin yoʻl va uy qurilishlari natijasida buzulgan(Tutzor va Sujoat koʻchalarining kesib oʻtishi kabi holatlar). Bu esa qatlamni noteks yoʻqotish va arxeologik konteksni buzish xavfini oshirgan. 3. Sarvontepa yodgorligining mustaqillik davrida oʻrganilishi va hozirgi ahamiyati. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda milliy tarixni chuqur oʻrganish, qadimiy yodgorlikni ilmiy asosda tiklash va oʻqishdan asrab avaylash ishlari yangi bosqichga koʻtarildi. Shu jarayonida Andijon viloyatidagi Sarvontepa yodgorligi ham arxeologlar diqqat markaziga qayta kirdi.2001- yildan boshlab Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiyasi insituti olimlari tomonidan Sarvontepada yangidan stratigrafik qazishmalar amalga oshirildi. Bu ishlarni B.X. Matboboyev boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya

olib bordi. Qazishmalar davomida yodgorlikning pastki qatlamlarida miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid Eylaton madaniyati izlari aniqlandi. Bu topilmalar Sarvontepaning nafaqat o'rta asr, balki ilk temir davrida ham yashash maskani bo'lganini ilmiy jihatdan isbotladi. Shuningdek, 2001-2001-yillar davomida berilgan qazishmalarda turli angobli va bezakli sopol idishlar, xom g'ishtdan qurilgan platformalar, kul qatlamlari va ko'mirli madaniy qatlamlar aniqlanib, ularning stratigrafik joylashuvi asosida yodgorlikning kamida uch madaniy bosqichda shakillangani aniqlangan. Turizm sohasida viloyat strategiyalari doirasida Sarvontepa va boshqa yodgorliklar sayyohlik joylari sifatida rivojlantirilishi ko'rib chiqilmoqda.

Sarvontepa O'zbekistonda material madaniyat tarixini o'rganish uchun muhim obeykt. Turizm Andijon viloyatidagi sayyohlik salohiyati tarkibida bo'lib, mahalliy va xorijiy sayyohlar e'tiborini tortadi.

Tadqiqotchilar uchun qadimiy madaniyatlar bo'yicha aniq voqeani o'rganish sifatida xizmat qiladi. Tekshiruvlari hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan qazishmalar ishlari haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbekiston respublikasi Arxeologiya instituti va Z.M.Bobur nomidagi xalqaro jamoa fondi tomonidan maxsus tashkil etilgan Andijon Arxeologiya otryadi B.X.Matboboyev xabarligi ostida 2000-2012 yillarda o'tkaziladi XX asr boshidagi shaxar xaritalarida 8 ta me'moriy-arxeologik obyektlar, 11 ta shahar qabristonlari, 39 ta masjid qayd etilgan. V-VI asr kulolchilik ham yetarli miqdorda aniqlangan. Bu davrga xos kulolchilik buyumlari ham ilgari davrlarga o'xshashliklari mavjud. Ko'za bo'g'zi tashqi tomondan uchlari pastga qaratilgan uchburchak shaklda galma-gal takrorlanuvchi tirnab ishlangan bezaklar bilan bezatilgan. Topilmalar orasidan dag'al ishlangan qozon va yagona nusxada ham topilgan. Bu kompleksda turli idishlarning tag qismi ko'plab uchraydi.

Sarvontepa arxeologik yodgorligi O'rta Osiyodagi qadimgi madaniyat va inson faoliyatining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bu yodgorlik orqali odamlarining turmush tarzi, ovchilik va mehnat vositalari, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy hayotga oid ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Qatlamlar va shurf qazishmalari orqali arxeologlar tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilib, hududning qadimgi aholisi va ularning madaniy merosini chuqurroq tushunishga imkon topadi. Shu sababli Sarvontepa nafaqat tarixiy, balki madaniy va ilmiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Sarvontepa arxeologik yodgorligi O'rta Osiyodagi qadimgi madaniyat va inson faoliyatining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bu yodgorlik orqali Muste davri odamlarining turmush tarzi, ovchilik va mehnat vositalari, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy hayotga oid ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Qatlamlar va shurf qazishmalari orqali arxeologlar tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilib, hududning qadimgi aholisi va ularning madaniy merosini chuqurroq tushunishga imkon topadi. Shu sababli Sarvontepa nafaqat tarixiy, balki madaniy va ilmiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.



FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR

1. Matboboev A. Andijon viloyati arxeologik yodgorliklari. -Toshkent, 1998.
2. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi manbalari. -Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1997.
3. Raxmonov T. “O‘rta Osiyo arxeologiyasi.” – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.
4. Sadullayev A. “O‘zbekiston qadimiy madaniyati va yodgorliklari.” – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.

